

MILLIY IDENTITETNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIYA VA AMALIYOTDAGI HOLATI

Sharofiddinov Maxmudjon Mashrabjon o'g'li

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
mustaqil izlanuvchisi*

sharofiddinov.mahmudjon@mail.ru

ORCID 0009-0004-5751-8107

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy identiklikning o'zak xususiyatlaridan biri bo'lgan milliy xarakter, mentalitet, uning o'ziga xos jihatlari, sifatleri ochib berilgan. Milliy identiklikning dinamik xususiyati muayyan bir etnohududiy makonda istiqomat qilayotgan xalq va elatlarda milliy mansublik va o'zlikni anglash masalalari. Milliy identiklik jarayoni, uni millat qanday tushunishiga bog'liqligi ochib berilgan. Xotiralardan iborat kollektiv g'oya yoki o'zini-o'zi tasvirlash sifatida milliy identiklik madaniy xususiyatga ega ekanligini ko'rsatilgan. Milliy identiklikni shakllantirishda tarix, adabiyot, teatr va filmlarning o'rnini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy xarakter, milliy identiklik, etnopedagogika, milliy mentalitet, tarbiya, ijtimoiy g'oya, madaniyat, qadriyat, etnohudud, milliy an'ana, milliy urf-odat.

ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье раскрываются такие ключевые характеристики национальной идентичности, как национальный характер и менталитет, а также их специфические особенности и качества. Рассматривается динамический характер национальной идентичности через призму осознания национальной принадлежности и самосознания народов и этнических групп, проживающих в определённом этнотерриториальном пространстве. Освещается процесс формирования национальной идентичности и его зависимость от того, как нация сама его интерпретирует. Показано, что национальная идентичность, как коллективная идея, основанная на исторической памяти или самовосприятии, обладает культурным характером. Также раскрывается роль истории, литературы, театра и кино в формировании национальной идентичности.

Ключевые слова: национальный характер, национальная идентичность, этнопедagogika, национальный менталитет, воспитание, социальная идея, культура, ценности, этнотерритория, национальные традиции, обычаи.

THE STATE OF THEORY AND PRACTICE IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL IDENTITY

Abstract. This article examines key features of national identity, including national character and mentality, as well as their distinctive traits and qualities. It explores the

dynamic nature of national identity in relation to issues of national belonging and self-awareness among peoples and ethnic groups living within a specific ethno-territorial space. The study highlights the process of national identity formation and its dependence on how a nation perceives and interprets itself. It is demonstrated that national identity, as a collective idea formed by shared memories or self-representation, possesses a cultural character. The role of history, literature, theater, and cinema in shaping national identity is also analyzed.

Keywords: national character, national identity, ethnopedagogy, national mentality, education, social idea, culture, values, ethno-territory, national traditions, customs.

KIRISH

Milliy identiklik muammosi juda dolzarb muammoga aylanmoqda. Chunki, bir tomondan globallashuv ta'sirida turli millatlardan tashkil topgan yer kurrasi yagona madaniy dunyoga integrasiyalashmoqda, ikkinchi tomondan milliy identiklikni saqlash millatni saqlab qolishning muhim omiliga aylanmoqda. Haqiqatan, bugungi kun borlig'i nuqtai nazaridan identiklik insonning etnik birlik, millat, milliy davlatchilik qurilishi tarixi va tarixiy sinovlarning mohiyatini tushuntirish vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Madaniy taraqqiyot identiklikning barcha ko'rinishlarida, xususan etnik birlik a'zosi, millat vakili sifatidagi inson va uning milliy madaniyatida o'z ifodasini topadi, bu bilan madaniyat dunyo, ayrim xalqlar va davlatlarning determinanti (lot. determinans - aniqlovchi) sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayoni tobora jadallashayotgan bir davrda yosh avlod, ayniqsa ertamiz egalari bo'lajak kadrlar talabalarda milliy identiklikni etnopedagogika vositasida rivojlantirish, ularga etnopedagogikaning tarbiyaviy xususiyatlarini keng ochib berish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunda xalqimizning tarbiyaviy an'analari asosida talabalarda milliy qadriyatlarini shakllantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar, tajribalarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik tajribalar o'tkazish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy identiklikning dinamik xususiyati muayyan bir etnohududiy makonda istiqomat qilayotgan xalq va elatlarda milliy mansublik va o'zlikni anglashga bo'lgan ehtiyojning yuksalishi bilan izohlanadi. Bunday ehtiyoj bugungi tarixiy taraqqiyot bosqichida adolatli davlat siyosati va jamiyat manfaatlari asosida tobora rivojlanib, takomillashib bormoqda. Chunki har bir xalqning milliy o'zligini anglashi, uning milliy barqarorligini ta'minlaydigan asosiy omil sanaladi. Bu borada O'zbekiston

Respublikasi tomonidan “milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash”ni rag‘batlantirishga doir muhim vazifalar belgilandi. Shu bois yurtimizda talabalarda milliy identiklikni rivojlantirishda ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash xalqimizning tarbiyaviy an‘analarining imkoniyatlarini aniqlash zarurdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy identiklik shaxsiy identiklikka o‘xshab yaratiladi. Agar o‘zlarining hikoyalari insonning o‘ziga xosligini bildirsa, jamoaning milliy xotiralar haqidagi hikoyalari orqali o‘zlarining milliy identikligini yaratadilar. Tarjimayi hollarning milliy identikatsiyasini belgilashdagi roli haqida Iogann Kolm “milliylikka har bir kishi rozi bo‘ladi va uni hikoya qilishidan ajralib turadi”. Tarixni tadqiq qilish kerak, chunki bu kabi hikoyalar orqali qaysi tarixiy hodisalarning millatning o‘ziga xos xususiyatlari va qaysi maqsadda ekanliklari haqida ma’lumot beradi. Ilgari milliy tadbirlar og‘zaki bo‘lgan, keyinchalik milliylikni ulug‘lash yozma adabiyotga o‘tgan.

MDH davlatlarida S.Abashin, L.Russkix, K.Tuaeva, V.Achkasov, N.Jukova, Yu.Granin, T.Stefanenko, N.Antonova va boshqa olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida identiklikning jamiyatda o‘zlikni anglash, ijtimoiy-madaniy tajriba, madaniy tarixiy xotira va sotsiomadaniy meros bilan bevosita aloqador masala ekanligini ta’kidlaganlar. O‘zbekistonda milliy mentalitet va o‘zlikni anglashning sotsiologik masalalarini M.Bekmurodov, R.A.Ubaydullaeva, O.Ata-Mirzaev, M.Ganieva, N.Aliqoriev, T.Matibaevlar, ijtimoiy va diniy omillarni A.Umarov, A.Xolbekov, K.Kalanov, O.Abduazimov, R.T.Ubaydullaeva, B.Farfiev, N.Latipovalar, vorisiylik va avlodlararo munosabatlar tizimini Sh.Sodiqova, A.Seitovlar, katta va yosh avlod o‘rtasidagi etnomadaniy jihatlariga oid xususiyatlarini o‘z tadqiqot ishlarida asoslaganlar. «Talabalarda milliy identiklikni rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari» deb nomlangan birinchi bobida talabalarda milliy identiklikni rivojlantirishda falsafa, sotsiologiya va huquqshunoslik fanlaridagi o‘zbekcha izohlarini «aynanlik», (Sh.Madayeva, 2015. 2) «mansublik», (K.Kalanov, 2006, 3) «monandlik» kabi atamalar bilan kishilarning ijtimoiy munosabatlarga kirishuvidagi jihatlari qiyosiy tahlil etildi.

Identiklikning shakllanish bosqichlari va ilmiy asosi davriy ahamiyat kasb etib, unda tarixiy va ijtimoiy xotira, psixologik iroda mezonlari tarixiy Amerikalik tadqiqotchi K.Levin o'zining «maydonlar nazariyasi» ta'limotida identiklik: a) «sub'ekt» (individd/davlat), b) «atrof-muhit fazosi» (Ye yenviranment) va v) «hayot fazosi» (L-life) orqali shakllantiriladi. Identiklik (I identitiy)ni modellashtirar ekan, K.Levin geografik, tarixiy, diniy, til va boshqa shu kabi unsurlarni quyidagi formulaga soladi, ya'ni $I=Ye-L$ yoki «identiklik» (I) «hudud», «iqlim» (Ye) asnosida «sivilizasiyalar», «mafkuralar» (L)ga tayanib milliylikni tashkil etadi.(Levin K, 2000, 5)

Xalqimizda tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Yurtboshimizning tarbiya haqida quyidagi ajoyib fikrlarini keltirib o'tgan "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan".¹ Bu jumlar, odamlarni o'zligini anglashga va o'z merosiga sodiq qolishga undaydi. Ularning qalbida ulug' zotlarning avlodlari ekanligi haqidagi g'ururni uyg'otadi. Bunga erishish uchun tarbiya juda muhimdir. Tarbiya orqali insonlar o'zligini, qadriyatlarini va madaniyatini bilishadi. Tarbiya bolalarga yaxshi axloq, bilim va qadriyatlarni singdiradi, bu esa ularga o'z merosini hurmat qilishga yordam beradi. Bu borada shuni aytishimiz mumkinki tarbiyani bola tug'ilgan kundan boshlamoq lozim.

Jadidchilik nomoyondalaridan biri Abdulla Avloniy o'zining asarlarida tarbiya va tarbiya beruvchilar haqida shunday degan: "Tarbiya qilguchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi

jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmoq lozimdir. Zero ki “Hussini ahloqakum” amri sharifi uzra xalqimizni tuzatmakgʻa amr oʻlinganmiz. Lekin xalqimizning yaxshi boʻlishining asosiy panjasi tarbiyadir.”

Bu jumlar bizga shuni maʼlum qildiki tarbiyachilar, tibbiyot mutaxassislari kabi, bolalarni yaxshi xulq bilan tarbiyalashlari kerak. Tarbiyachilar bolalarning ichidagi gʻazab yoki salbiy his-tuygʻularni “yaxshi xulq” bilan davolashlari muhim. Yaʼni, xalqning yaxshi boʻlishi, uning tarbiyasiga bogʻliq ekanligini ifodalab oʻtgan.

Milliy tarbiya orqali avlodlarga oʻz xalqining tarixiy, madaniy va axloqiy qadriyatlari oʻrgatiladi. Ushbu tarbiyaning ahamiyatini quyidagi jihatlar orqali koʻrsatish mumkin: Milliy identitet: Milliy tarbiya orqali bolalar oʻz xalqining anʼanalari, urf-odatlar va tilini oʻrganadilar, bu ularning milliy identitetini shakllantiradi. Vatanparvarlik: Milliy tarbiya bolalarda vatan sevgisi va shaxsiy masʼuliyat hissini rivojlantiradi, bu esa jamiyatning barqarorligini taʼminlaydi. Axloqiy qadriyatlar: Milliy tarbiya xalqning axloqiy meʼyorlarini, oʻzaro hurmat va adolatni oʻrgatadi, bu esa kelajak avlodlar oʻrtasida sogʻlom munosabatlarni shakllantiradi. Madaniy meros: Milliy tarbiya orqali avlodlar orasida xalqning sanʼati, musiqasi, adabiyoti va boshqa madaniy merosi saqlanadi va rivojlantiriladi. Oila va jamoa roli: Milliy tarbiya oila va jamiyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, bu esa jamiyatni birlashtiradi va kuchaytiradi. Milliy tarbiya oʻz xalqining kelajagi uchun poydevor boʻlib xizmat qiladi, yoshlarni yanada maʼnaviy va madaniy jihatdan boyitadi deb aytsak mubolagʻa boʻlmaydi. Milliy identitet - bu bir xalq yoki millatga xos boʻlgan madaniy, tarixiy, til, urf-odatlar, qadriyatlar va boshqa xususiyatlarning yigʻindisi. U odamlarning oʻzligini anglashida, oʻz millatiga boʻlgan munosabatida muhim rol oʻynaydi. Milliy identitet, shuningdek, oʻzaro bogʻlanish va bir-biriga yaqinlashishni kuchaytiradi. Milliy identitet, shuningdek, globalizatsiya sharoitida muhim ahamiyatga ega, chunki u odamlarni oʻz madaniyati va anʼanalarini saqlashga undaydi. Hukamolardan biri: “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bogʻliqdir” – demish.

Ushbu fikrlar, millat va davlatning kelajagi yosh avlodning tarbiyasi bilan bevosita bogʻliq ekanligini taʼkidlaydi. Milliy tarbiya yoshlarni oʻz millatining tarixiy,

madaniy va axloqiy an'analariga hurmat va sevgini singdirishga yordam beradi. Milliy tarbiya orqali yoshlar o'zining milliy kimligini bilib, o'z tarixini, madaniyatini va qadriyatlarini qadrlashni o'rganadi. Masalan, o'zgarmas qadriyatlar, urf-odatlar, milliy bayramlar va tarixiy voqealar yoshlarning milliy ruhini shakllantiradi. Ushbu ruh millatning birlik va yaxlitligini saqlashga yordam beradi. Misol uchun, yaxshi ta'lim va tarbiya olishgan yoshlar innovatsiyalar yaratish, iqtisodiy o'sish va ilmiy izlanishlar orqali davlatning rivojlanishiga yordam beradi.

NATIJALAR

Tahlil etish natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy identiklik muammosining o'ziga xos xususiyatlari so'nggi davrda turli ijtimoiy fan vakillari tomonidan tadqiq etilgan. Jamiyat hayotida «identiklik» muammosi tahlil etilar ekan, uning negizida o'zbek xalqining mental xususiyatlarini namoyon qiluvchi ijtimoiy xususiyatlar tadqiqot ishining tarkibiy qismini tashkil etdi.

Jamiyatda yetakchi va ustun hisoblangan sotsiomadaniy identifikasiya odatda, nafaqat shaxsni, balki sotsiumda istiqomat qilayotgan avlodlarning ham o'zini har tomonlama ijobiy baholashi yoki sotsial muhitga muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi bilan bog'liq mutanosibliklarni aks ettiradi. U yoki bu identifikasiyaning ijtimoiy strukturadagi o'rne sotsiomadaniy kontekstning o'zgarishi ta'sirida almashishi mumkin. Masalan, har bir davrning boshqaruv apparatidagi o'zgarishlar yangi shaxslararo yoki avlodlararo identifikasiyani paydo qilishi mumkin. Jumladan, XX asrning 30-60 yillaridagi insonlar uchun non mukofot rolini bajarishi muqarrar edi. Ammo bugungi kun avlodiga nonning qadrini android tizimidagi texnik vositalar (kompyuter, telefon, turli maishiy texnika buyumlari) qiymati bilan solishtirish mutlaqo tushunarsiz holat hisoblanadi. Lotincha (identus – aynanlik, mansublik, o'xshashlik) - shaxs tomonidan o'zining qaysi sotsial guruhga mansubligi hamda shu sotsial guruh doirasida ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, maishiy, axloqiy stereotiplarga amal qilinishi. Identiklik insonda «MEN kimman», «MENING boshqalardan farqim nima» degan savollar asosida vujudga keladi va bunda inson o'zlikni anglash jarayonidagi murakkab yo'lni bosib o'tadi. (Fromm, 2009, 14) Yaqin vaqtlargacha «identiklik» tushunchasi ilmiy bahs-munozaralarda deyarli ishlatilmas va qo'llanmasdi. Mazkur atamaning nazariy va empirik o'rganish predmeti

bo'lmagan. U monografiya, darslik va jurnal materiallarida uchramasdi. Bu tushunchani hatto falsafa, psixologiya lug'atlarining so'nggi nashrlarida ham S.Shulmanga ko'ra «milliy identiklik» ta'limoti uchta asosiy jihatga ajratilib tadqiq etilgan.

Agar inson ilmni o'rganishga yoki ilm-fan haqida ma'lumotlarga ega bo'lmasa ham, ilmni qadrlash va hurmat qilish muhimdir. Milliy tarbiya ilmni qadrlash va uni e'zozlash orqali yoshlarni ma'rifatli qilishga qaratilgan. Misol uchun, ilm-fan, san'at va madaniyatni qadrlash yoshlarning madaniy saviyasini oshiradi va ularning ijtimoiy faoliyatida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bobomiz A.Avloniyning asarlaridagi ushbu jumlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. "Olim bo'l, ilm talab qilguchi bo'l yoki ilmni eshituvchi bo'l, hech bo'lmasa, shularga muhabbat qilguchi bo'l, beshinchisi bo'lma, halok bo'lasan "Milliy tarbiya ilm va ma'rifatga bo'lgan qiziqishni oshirishga qaratilgan bo'lib, yoshlarni ilmiy izlanishlarga undaydi. Misol uchun, ilmiy tadqiqotlar o'rganish orqali yangi texnologiyalar yoki ijtimoiy yechimlar yaratish, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi. Masalan biror yurtida tug'ilgan bola o'z shahrining tarixini, madaniyatini va urf-odatlarini o'rganishi, bu haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi, va shaharni rivojlantirishga hissa qo'shish orqali o'z vataniga muhabbatini namoyon etadi. O'zbekistonlik yoshlar o'z mamlakatining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish uchun ilm-fan yoki ishlab chiqarish sohalarida muvaffaqiyatlarga erishib, o'z vatanining yuksalishiga hissa qo'shishi mumkin. "Har narsa ko'p bo'lsa, bahosi arzon bo'lur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur " Tarbiya orqali aql va bilimni oshirish shaxsning qiymatini oshiradi va jamiyatda yuqori baholanadigan shaxsni yaratadi.

XULOSA

Milliy identiklik jamiyat taraqqiyoti iqtisodiy-siyosiy darajasi, ma'naviy kamolotida hal qiluvchi omildir. Milliy identiklik jarayonlarini tarixiy xotira bilan takomillashtirish, aholining fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish va afzallashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish mumkin. Identiklik – bu shaxsning mavjud sotsiumda turli madaniy xususiyatlarni o'zida jamlaganligi va shuning asnosida o'zining ma'lum sotsial birlikga tegishli ekanligini anglash, his etishdir; Milliy identiklik – millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida

mujassamlashtirgan, tarixiy, ijtimoiy xotira va mental xususiyatlarni o'zida gavdalantirish orqali ma'lum bir millat yoki etnosga mansub ekanligini va shu xalqning madaniyati, ruhiyatini aynanlik, monandlik orqali qabul qilish; Milliy o'zlikni anglash – har qanday millat vakilining umuminsoniy madaniy negizga, til, madaniyat, tarixiy meros, urf-odat va an'analarga mansubligini, o'z o'rnini idrok etishni anglatadi; Monandlik – bu, eng avvalo, odamlarning o'z «meni» to'g'risidagi ijtimoiy determinlashgan tasavvurdir. Ushbu tasavvur boshqalar bilan qiyoslash natijasida shakllanadi. Monandlik ijtimoiy reallikning muhim elementi hisoblanadi.

“Bir tog'ning o'rnidan ko'chib ketganini eshitsangiz, I shoningiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo'ldi deb eshitsangiz, ishonmangiz” ,bu degani tog'ning ko'chishi tabiiy hodisa, insonlarning o'zgarishi bo'lsa qiyin ekanini anglatadi. Odamlar o'z xulqini o'zgartirishi uchun ko'p vaqt, mehnat va ichki motivatsiya kerak. Misol uchun, bir kishi yomon xulqi bilan tanilgan bo'lsa, uning bir kun ichida yaxshi xulqga o'tishi ko'plarga shubhali ko'rinishi mumkin. Odatda, odamlarning ichki o'zgarishlari, ularning hayoti, tajribalari va tarbiyasi bilan bog'liq. Shuning uchun, boshqalar o'zgarishni ko'rmagan yoki his qilmagan taqdirda, ularning yangi xulqi haqidagi ma'lumotlarga ishonish juda qiyin bo'ladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yoshlarning yaxshi tarbiyasi millat va davlatning farovonligi, tinchligi va rivojlanishining asosi hisoblanadi. Milliy tarbiya orqali yoshlarni to'g'ri yo'naltirish va tarbiyalash, ularning jamiyatga qo'shgan hissasini kuchaytiradi va millatning kelajagi uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.Mirziyoev (2018-yil 28-dekabr) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy web sayti <https://prezident.uz/uz/lists/view/228>
2. Madaeva Sh.O. Identiklik antropologiyasi. Toshkent., 2015. - B.41.
3. Kalanov K.K. Markaziy Osiyo hududidagi ijtimoiy-diniy tabaqalar. Toshkent., 2006. – B.45.
4. A.Avloniy, Istiqlol qahramonlari, "Tanlangan asarlar" 2 jildlik Pandlar , ibratlar, hikoyatlar, nabiylar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari .Toshkent. "Ma'naviyat" 2006-yil.
5. M.G.Jamoliddinov "Jadidchilik davri adabiyoti" , Toshkent islom universiteti nahriyot matbaa birlashmasi ,Toshkent 2016 yil.
6. A.Tilalov, "Tarbiya kitobi" T. 2018 yil.

7. Андерсон Б. Воображаемые сообщества. Размышление об истоках и распространение национализма. М.: Канон-прес .Ц.; 2001., Фуко М. Археология знания. СПб.: Гуманитарная Академия: Университетская книга, 2004.
8. Бергер П., Лукман Т. Социальноэ конструирование реальности. Трактат по социологии знания. – М.: «Медиум», 1995. – S.323.
9. Becker N. Discontinious change and generational contracts. London, 2000; Kohli M. Aging and justice. Research Report 74. Berlin, 2005; Thomson D. Selfish generations. The ageing of the welfare state. Wellington, 1989; Ortega-I Gasset. X. Vosstanie mass. M. Izd. «AST Moskva», 2008, S.249